

# TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA O'QUVCHILARINI AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIPISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

**Dilmurod Roxatullaevich Raxmatullayev**

Pedagogik innovatsiyalar instituti mustaqil tadqiqotchisi

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'quvchilaring axborot madaniyati mazmuni, raqamlashgan jamiyat talablari, ta'lif jarayonida axborot madaniyatini o'rni va ahamiyati, axborot madaniyatini shakllantirishning pedagogik muammolari yoritib berilgan.

**Tayanch so'zlar:** internet, axborot, axborot madaniyati, axborot maydoni, axborot oqimi, glaballashuv.

## ABSTRACT

This article describes the content of the information culture of students, the requirements of the digital society, the place and importance of the information culture in the educational process, and the pedagogical problems of the formation of the information culture.

**Keywords:** Internet, information, information culture, information space, information flow, globalization.

## KIRISH

Raqamli jamiyatga o'tish jarayonida inson faoliyatining turli sohalarini axborotlashtirilishi va raqamlashtirilishi jamiyatda axborot madaniyatini shakllantirishning zaruriyatini oshiradi. Hozirgi bosqichda jamiyatning axborot madaniyatini shaxsning axborot madaniyati darajasiga olib chiqish masalasi qo'yilmoqda. Zamonaviy jamiyat hayotiga raqamli texnologiyalarini jadal joriy etish axborot makonini shakllantirish va elektron ta'lif tizimlarini rivojlantirish, ta'lif muassasalarida raqamli ta'lif muhitini tashkil etish, ta'limga yondashuvlarni va paradigmalarini qayta ko'rib chiqish, shuningdek, ta'lif tizimini takomillashtirish to'g'risida yangi ilmiy va pedagogik g'oyalarni shakllantirishiga olib keladi. Raqamli va axborot texnologiyalarini ta'lif tizimiga va o'quv jarayoniga keng joriy etish dunyo miqyosidagi tendensiya sifatida shakllanib bormoqda.

Raqamli jamiyat va uning tuzilmasi qanday? Raqamli jamiyat - bu raqamli texnologiyalar, xususan, katta xajmdagi axborotlar, sun'iy intellekt, algoritmlar va algoritmik tizimlar,

bulutli hisoblash va blokchen, platformalar va boshqa raqamli texnologiyalar orqali ishlaydi jamiyatni tashkil etish va jamiyatdagi ijtimoiy o‘zaro ta’sirning asosiy shakli. Raqamlashtirishni raqamli texnologiyalarning ijtimoiy hayotning barcha sohalariga kirib borishi va integratsiyalashuvida ko‘rinadi. Raqamlashtirish quyidagi jarayonlar to‘plami sifatida aks etadi: tarmoqlashtirish, tanishish, platformalashtirish va algoritmlashtirish. Ularning har biri raqamli jamiyatning texnologik infratuzilmasi — tarmoq, texnologiya elementlariga asoslangan katta xajmdagi ma’lumotlar, platformalar va algoritmlardir. Ushbu texnologik infratuzilma, o‘z navbatida, zamonaviy raqamli dunyoning super aloqasi, murakkabligi va harakatchanligini ta’minlaydi [1,2].

Shu bilan birga, ta’lim sohasini texnologik yangilash bosqichi vazifasini bajaruvchi ta’limni kompyuterlashtirish, ta’lim jarayoniga kompyuter texnologiyalarini joriy etish bilan birga, ta’lim jarayonini kompyuter asosiga o‘tkazishni, kompyuterli o‘qitish usullarini yaratishni, kompyuterli o‘qitish tizimlari va o‘rgatuvchi dasturlarni tasvirlaydi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Raqamli jamiyatning kommunikativ muhiti juda xilma-xil va ochiq bo‘lib, u tarmoq tugunlari bo‘lgan turli manbalardan kodlar va xabarlarni birlashtirishga imkon beradi. Har qanday moliyaviy operatsiyalar, telefon qo‘ng‘iroqlari, internetdagi yoki ijtimoiy tarmoqlardagi qidiruv so‘rovlari, elektron pochta, ijtimoiy tarmoq saytlaridagi aloqa ma’lumotlari yagona aloqa muhitiga birlashtirilganda raqamli kuzatuvning majburiy elementiga aylanadi. Bu esa, raqamli jamiyatning o‘ziga xosligini anglatadi va axborot madaniyatiga bo‘lgan ehtiyojni ko‘rsatadi.

Raqamli texnologiyalarning paydo bo‘lishi telekommunikatsion sohada tub o‘zgarishlarga olib keldi. An’anaviy tovushli aloqa xizmatlari Internet, ma’lumotlarni uzatish, mobil aloqa kabi interaktiv xizmatlar bilan o‘rin almashmoqda.

Ta’lim tizimida yangi axborot texnologiyalarining roli va ahamiyati ko‘plab mualliflar tomonidan ko‘rib chiqiladi. Xususan, ta’lim jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha A.A.Abduqodirov[3,4], U.Sh.Begimqulov[5,6], J.A.Hamidov[7] kabi olimlar ilmiy-tadqiqotlar olib borganlar.

Xorijiy tadqiqotlarda ta’limni raqamlashtirish tashkiliy masalalar, texnologik infratuzilmadan boshlanib, pedagogik yondashuvlar bilan yakunlanadigan turli jihatlarni o‘z ichiga oladi hamda interaktiv va moslashuvchan ta’lim dasturlarini taklif qilish orqali xalqaro miqyosda tashkillashtirishga ta’sir qiladi. Deyarli barcha tadqiqotlar ta’limni raqamlashtirish odamlarni jamiyatdagi o‘zgarishlarga va kasbiy muhitga

moslashtirishning moslashuvchan ko‘nikmalarini rivojlantirishga olib keladi degan tushuncha bilan bog‘liq [8].

Raqamlashtirish ta’lim va boshqaruv uchun yangi imkoniyatlar yaratib, ma’lumotlar yig‘ish va tahlil qilish, o‘zaro hamkorlik va muloqot qilishni osonlashtirdi. Raqamlashtirishning afzalliklari samaradorlikni oshirish, ta’lim oluvchilar faolligini oshirish, shaxsga qaratilgan ta’lim va yangi o‘qitish usullaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, raqamlashtirish ta’lim muassasalarini, o‘quv dasturlarini, professor-o‘qituvchilarni, xodimlarni va resurslarni boshqarishni osonlashtiradi.

Raqamlashtirishning asosiy afzalliklaridan biri bu o‘quvchilarning faolligini oshirish imkoniyatlaridir. Onlayn ta’lim platformalari, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar kabi raqamli vositalardan foydalangan holda universitetlar o‘quvchilarni motivatsiya va yo‘lda ushlab turadigan interaktiv hamda qiziqarli ta’lim tajribalarini yaratishi mumkin.

Ta’lim tizimining raqamlashtirish bosqichiga o‘tishi jamiyatni raqamli davrga ishonchli o‘tishni va iqtisodiyotni raqamli o‘zgartirishni axborot texnologiyalari, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va axborot xavfsizligi sohasidagi yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minalashni ta’minalashi kerak. Raqamli transformatsiya tufayli zamонави sharoitda oliy ta’lim tizimining rivojlanishi o‘quv jarayonini qurishga, shu jumladan ilg‘or o‘quv texnologiyalaridan foydalangan holda zamонави elektron axborot-ta’lim muhitini yaratishga, ta’limni boshqarish strategiyasini amalgalashirishga va individual xususiyatlarga asoslangan o‘quv materiallarini moslashtirishga yangi talablarni qo‘yadi.

Glaballashuv davrida ta’lim sohasi shaxsning axborot madaniyatini shakllantirishga eng katta ta’sir ko‘rsatadi. Buning uchun ta’lim jarayonida shaxsning axborot madaniyati va uning asosiy elementlari shakllanishi kerak.

## NATIJALAR

Jamiyatni raqamlashtirish pedagogik faoliyatga sezilarli o‘zgarishlar kiritadi, ko‘p jihatdan fikrlashning mohiyati, rasmiy va norasmiy, reproduktiv (algoritmik) va ijodiy fikrlash va faoliyatdagi munosabatlar to‘g‘risida yangi savollar tug‘diradi. Va bu vazifa, ayniqsa, dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari raqamli jamiyat davriga kirgan sharoitda dolzarb bo‘lib qoladi.

Shu bilan birga, ilmiy-texnik taraqqiyot ta’limga bo‘lgan yondashuvlarning o‘zgarishiga, ta’limga bo‘lgan ehtiyojning oshishiga olib keldi, bu ta’lim jarayoniga kiritilganlar sonining miqdoriy o‘sishida namoyon bo‘ladi: eng rivojlangan mamlakatlarda yoshlarning

aksariyati o‘rta maktabni tugatishni boshladilar va ularning yarmidan ko‘pi kollej, institut va universitetlarda o‘qishni davom ettirmoqdalar. O‘qitish nafaqat yoshlarga, balki butun aholiga ham tatbiq etilib, qayta tayyorlash, kadrlar malakasini oshirish, universitetdan keyingi bosqichlar va qo‘srimcha ta’lim shakllarini oldi.

Bir tomondan, ta’limning vazifasi yuqori malakali mutaxassislarni, yuqori shaxsiy fazilatlarga, dunyoqarashga, ma’naviyatga ega bo‘lgan muayyan faoliyat turidagi mutaxassislarni tayyorlashdir. Boshqa tomondan, bu fazilatlarni shaxsnинг faol hayoti davomida saqlab turishni ta’minlashda. Boshqacha qilib aytganda, bu odamni o‘rganishga o‘rgatishdir.

Bo‘lajak mutaxassisning axborot madaniyati shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini hisobga olgan holda shakllantirish AKT vositalari, axborot tarmoqlari imkoniyatlaridan samarali foydalanishni nazarda tutadi. Buning uchun ta’limni yangi shakllarini, o‘qitish usullarini rivojlantirish, raqamli jamiyatini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalariga muvofiq ularning kasbiy darajasini doimiy ravishda oshirishga e’tibor berishni talab qiladi.

## MUHOKAMA

Bugungi kunda professional ta’limi yo‘nalishining muhim xususiyatlari kompyuter texnologiyalari va axborot vositalarining professional ta’lim o‘quvchisi shaxsini shakllantirish va rivojlantirish jarayoniga ta’sirini o‘rganishga undashi, axborotlashtirish asosida ta’lim sohasini yangilashning mohiyati va maqsadlarini, shu jumladan kasbiy rivojlantirishning muhim jarayonini anglash uchun sharoit yaratish-bularning barchasi dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Bo‘lajak mutaxassisning kasbiy rivojlanishi kasbiy faoliyatga asoslangan va shaxsiy xususiyatga ega bo‘lgan yana bir muhim omil bilan tavsiflanadi - bu kasbiy maadniyatidir. Kasbiy madaniyat bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy ahamiyatli fazilatlari sifatida olimlar tomonidan uzoq vaqtadan beri ko‘rib chiqilib, ushbu konsepsiya mazmunan to‘ldirilib bormoqda. Xususan, XXI asr mutaxassisi kasbiy madaniyati tarkibiga axborot madaniyati kiritildi.

Bo‘lajak mutaxassisning kasbiy rivojlanishi deganda kasbga oid bilim va ko‘nikmalar, qobiliyatlar, shaxsiy xususiyatlarning o‘sishi, shakllanishi, amalga oshirilishi, ichki dunyosini faol ravishda sifatli o‘zgartirishi, kasbiy faoliyatning ijodiy usullarini amalga oshirishga olib kelishi tushuniladi.

## XULOSA

Ta’limni axborotlashtirishning zamonaviy darajasi nafaqat kasbiy rivojlanishning yangi shakllari va usullarini joriy etadi,

balki bu konsepsiyaning mohiyatini sifat jihatidan o‘zgartiradi, bunda pedagogik yo‘nalish, pedagogik kompetensiya, ijodiy faoliyat va o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyati kabi tarkibiy qismlarning yangi xususiyatlari paydo bo‘ladi.

Shunday qilib, biz ko‘tarib chiqqan muammoning holatini o‘rganish quyidagilarni aniqladi: raqamlar jamiyatda axborot madaniyatini shakllantirish muhim, dolzarb, va shu bilan birga, kam tadqiq qilingan muammolar sirasiga kiradi. Muammoni hal qilish uchun yaxshigina tajriba to‘plangan, uning nazariy asosining ahamiyati bunga misol bo‘ladi; uchinchidan, davr talabiga, raqamlashgan jamiyat ehtiyojlariga hamda professional ta’lim muassasalaridagi axborot madaniyatiga ega bo‘lajak mutaxassis modeli ishlab chiqilgandagina uni samarali yechimini topish mumkin.

## REFERENCES

1. Добринская Д.Е. Цифровое общество в социологической перспективе // Вестник Московского университета. Сер. 18: Социология и политология. 2019. Т. 25. № 4. С. 175–192. DOI: 10.24290/1029-3736-2019-25-4-175-192.
2. Добринская Д.Е., Мартыненко Т.С. Цифровой разрыв в России: Особенности и тенденции // Мониторинг общественного мнения: Экономические и социальные перспективы. 2019. № 5. С. 100–119. DOI: 10.14515/monitoring.2019.5.06.
3. Abduqodirov A., Pardaev A. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. – T.: Fan, 2009. 145 b.
4. Abduqodirov A.A. Bo‘lajak o‘qituvchilarining axborot kommunikatsiya texnologiyalariga oid kompetentligi. — Pedagogning shaxsiy va kasbiy axborot maydonini loyihalashda axborot kommunikatsiya texnologiyalariga oid kompetensiyalar mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materialari. – T.: TDPU, 2015. 3 b.
5. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlash-tirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Ped. fan. dokt. ... diss. – T.: 2007. – 305 b.
6. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Ped.fan.dok. ...diss. – T., 2007. – 305 b.
7. Hamidov J.A. Ta’lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo‘llash o‘qitish samaradorligini oshirish omili // Kasb-hunar ta’limi.-Toshkent, 2013.- № 6.-B. 15-20.
8. Anarbaeva F.U., Qoraev A.F. Ta’lim jarayonini raqamlashtirish. Analytical Journal of Education and Development. Volume: 02 Issue: 07 | Jul-2022 ISSN: 2181-2624. – B.6-9.